

**O'SMIRLAR MA'NAVIY QIYOFASINI SHAKLLANTIRISHDA
AFFILIATSIYA MOTIVINING O'RNI**

Mussayeva Muxlisa G'aybulloyevna

Buxoro soliq texnikumi psixologi

Annotatsiya. Mazkur maqolada affiliatsiya motivi, ijtimoiy xulq, ma'naviy qiyofaning tuzilishi, tarkibi va ta'rifini nazariy jihatdan asoslangan, shaxs ijtimoiy xulqi shakllanishiga ta'sir etuvchi affiliasion hamda ma'naviy omillar bo'yicha ilmiy qarashlar evolyusiyasini tizimlashtirish, shakllangan tasavvurlarni to'ldiruvchi turli tushunchalarga izohva tushuntirishlar berilgan.

Kalit so'zlar: affiliatsiya, evolyusiya, fuqarolik jamiyat, motiv, psixologik, xususiyatlar, korreksiya, diagnostika.

Biz fuqarolik jamiyatini barpo etar ekanmiz, uning barqarorligi, avvalo, turli jamoalardagi shaxslararo munosabatlarni to'g'ri o'rnata bilish, birgalikdagi faoliyatni tashkil etish, jamiyatda o'z o'rmini topish kabi motivlarni shaxsda shakllantirish bilan ham bog'liq.

Talabalardagi ma'naviy barkamollikning ko'plab omillari mavjud. Ular orasida yoshlar guruhini uyushtiruvchi, undagi ma'naviy muhit, o'zaro munosabatlarni yaxshilash orqali o'quv hamda professional mahoratga undovchi motivlar borki, u psixologiyada affiliatsiya motivi deb ataladi. Uni o'rganish va yoshlarda affiliasion ustakovkalarni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy psixologik dasturlarning O'zbekiston sharoitida ishlab chiqilmagani va bu yo'nalishda hali ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar olib borilmagani ushbu mavzuni dolzarb ilmiy muammo ekanligini ko'rsatadi.

Ilmiy izlanishda oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talaba-yoshlarda affiliatsiya motivini (ing: "to affiliate" – "birlashtirmoq", "birlashmoq", "in sonning boshqa odamlar davrasida bo'lishga intilishi") tadqiq qilish, ular ijtimoiy xulqini muvofiqlashtirish orqali ma'naviy qiyofani shakllantirishga ta'sir

etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar o'rganiladi. Milliy taraqqiyotning garovi hisoblangan shaxs ma'naviy qiyofasining tarkibiy qismiga kiruvchi affiliatsiya motivini talabalarda shakllantirish, bizga o'z mutaxassisligida kommunikativ kompetentlikka ega bo'lgan, shu jumladan, fuqarolik jamiyatini barpo etishda o'z hissasini qo'shuvchi malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlab berish imkonini beradi. Affiliatsiya motivatsiyasi - muloqotga intilish, bilishga intilish, o'zini ta'kidlash, manfaatli hamkorlikka intilish kabi maqsadlar, ehtiyojlar, motivlar majmuidan iborat bo'lgani bois, u talabani o'quv faoliyati davomida aqliy, anglanilgan muloqot jarayoniga o'tishga undaydi, shaxslararo munosabatlarni yaxshilab, guruhiy jipslikni ta'minlaydi.

Insonni boshqa insonlar davrasida bo'lishga intilish ehtiyojining paydo bo'lishi, birlashishga ishtiyoqi - affiliatsiya motivatsiyasi fenomenini keltirib chiqaradi. Ushbu fenomen insondagi havotirlanish darajasini pasayishiga, psixologik stress holatini oldini olishga, uni yumshatishga olib keladi. Affiliatsiya motivatsiyasini qondirilmasligi – insonda yolg'izlik, begonalashish, tushkunlik, depressiya holatlarini keltirib chiqaradi.

Affiliatsiya motivi ilmiy asoslangan, empirik ma'lumotlarga tayangan holda o'rganilganda, uning tarkibi, gender va yosh xususiyatlari, shuningdek, xarakteriologik va shaxs xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqligini, bolalikdan oiladagi o'zaro munosabatlarda odatiy uslublarning o'rganilishi, olingan natijalardan keyingi korreksiya va diagnostika ishlarida, kommunikativ kompetent mutaxassis kadrlarni tayyorlab berishda, shaxslararo munosabatlar doirasida talqin etilganda, muvofiqlikka va uyg'unlikka erishish, jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlimni yaxshilash mumkin bo'ladi. Bu holat mamlakatimizda tarbiyalanayotgan yoshlar orasida, xususan, talabalarda affiliatsiya motivining psixologik tabiatini o'rganishda yangi diagnostik apparat (metodikalar majmuasini) va etnopsixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda mualliflik ta'riflarni berish, shunga mos tarzda ta'lim-tarbiya mexanizmlari, ijtimoiy-psixologik trening modelini ishlab chiqilishini dolzarb ilmiy zarurat sifatida namoyon etadi.

Affiliatsiya motivining psixologik jihatlari, xarakteriologik va shaxs

xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi doirasida (Nijniy Tagil, Rossiya); affiliatsiya motivatsiyasini o'quvchining shaxs bo'lib shakllanishi va kommunikativ kompetentligini oshirishdagi ahamiyati (Qozon, Rossiya); chet tillarini o'rganish jarayonida talabalarda affiliatsiya motivi va muvaffaqiyatga erishish motivlarini shakllantirishda ilg'or texnologiyalarni joriy etish hamda shaxslararo munosabatlar doirasida affiliatsiya motivatsiyasini shakllantirish (Kalininograd, Rossiya); Armaviya davlat pedagogika universiteti (Rossiya) va Ye.A. Buketov nomidagi Karaganda davlat universitetida (Qozog'iston) talabaning universitet muhitiga muvaffaqiyatli adaptatsiyasi va talaba o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ta'siri muammolari o'rganilib, talaba oilasi bilan ham psixologik hamkorlik ishlari olib borilmoqda.

Affiliatsiya motivatsiyasi orqali yoshlar ma'naviy dunyosiga ta'sir etish mexanizmlarini o'rganish hozirgi kunda nafaqat bizning xududimiz uchun, balki davlatlararo global miqyosdagi muammo bo'lib, quyidagi yo'nalishlarning istiqbolli ekanligini ko'rsatdi:

yoshlarda namoyon bo'layotgan yolg'izlanish motivining oldini olish;

oiladagi shaxslararo munosabatlarning amalda affiliatsiya motivatsiyasini rivojlanishiga ta'sirini o'rganish;

shaxsda affiliatsiya motivatsiyasini shakllanishiga etnohududiy va etnopsixologik omillarni ta'sirini o'rganish;

yoshlar ma'naviy qiyofasi, affiliatsiya motivatsiyasini shallanishiga axborot texnologiyalarining ta'sirini o'rganish.

Ijtimoiy psixologiyaning motivatsiya muammosiga doir yuqorida ko'rsatib o'tilgan jihatlarining tadqiq etilishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida hamda yoshlarda fuqarolik pozisiyasini shakllantirish borasida talabalik yillaridayoq yosh mutaxassislarning salohiyatidan yanada samaraliroq foydalanishga imkoniyat yaratadi.

Adabiyotlar

1. Yelkanova SB. Osnovy professionalnogo samovospitaniya budushchego uchitelya. M.:MGU. 1989.-189s.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari

2. Jabiskaya L.G. Psixodiagnostika dlya uchiteley. Kishenev. 1991.-126s.
3. Jalolov A. Mustaqillik mas'uliyati.-T.: O'zbekiston,1996. – 29 b.
4. Zeygarnik B.V.Teoriya lichnosti v zarubejnoy psixologii.-M.:MGU,1981.– 128s.
5. Ilin B.C. Problemy formirovaniya motivasii ucheniya u shkolnikov.V kn.: Formirovaniye stremleniy k znaniyam, motivasii ucheniya u shkolnikov. -Rostov-na -Donu, 1975.- S. 24-48.